

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 22 - noyabr

416-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani "Sanoat" MFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 16-fevraldagi 01/99-sonli buyurtma xatin inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo'ng'irot tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan "Sanoat" MFY hududidan laboratoriya binosi qurilishi uchun 0,528 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Respublika ulat profilaktika markazi, Qoraqalpog'iston filialining Jasliq bo'limiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (M.Qurbanov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralari ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritсин.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**




F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 22-noyabrda
416-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Respublika ulat profilaktika markazi Qoraqalpog'iston filialining Jasliq bo'limiga
Qo'ng'iro't tumani, «Sanoat» MFY hududidan laboratoriya binosi qurilishi uchun tanlangan yer
uchastkasining

TARXI: M-6 I:2000



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, sharq, shimol va janub taraflari uchastka, g'arb gaz tarmog'i 7m, elektr tarmog'i 14m.

WGS-84 Koordinatasi

1. 43°3'28,33"C 58°49'37,95"B	3. 43°3'28,074"C 58°49'33,381"B
2. 43°3'26,582"C 58°49'36,271"B	4. 43°3'29,822"C 58°49'35,06"B

Tuman markazidan 2.24 km radius masofada

Yer uchastkasi maydoni (ga): 0.5280 ga (5 280 m²):

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: *Laboratoriya binosi*

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan



Shartli belgilar
Ajratilgan yer chegarasi